

BO‘LAJAK SHIFOKORLARNING BIOETIK KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING TRENING ASOSLARI

Babadjanova Gulchexra Baxtiyarovna

GulDU mustaqil izlanuvchisi, tibbiyot kafedrası o‘qituvchi
Alfraganus Universiteti, Toshkent shahri, O‘zbekiston Respublikasi

Annotatsiya.

Bo ‘lajak shifokorlarning bioetik ko‘nikmalarini shakllantirishda treninglar tashkil etish orqali tanqidiy fikrlash targ‘ib qilinadi, shifokorlarga tez o‘zgaruvchan biotibbiyot texnologiyalari dunyosida harakat qilish va qiyin vaziyatlarda ongli qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Deontologik kompetentlikni rivojlantirish uchun “Keys-stadi” usulini qo‘llash talabalarida bioetik fikrlash, axloqiy yechim topishi va to‘g‘ri qaror qabul qilish ko‘nikmasini shakllantirish uchun mo‘ljallangan. Bunda talabalar vaziyatni o‘rganishlari, muammolarning mohiyatini tushunishlari, mumkin bo‘lgan yechimlarni taklif qilishlari va eng yaxshisini tanlashlari mumkin.

Kalit sozlar. Keys-stadi, kasbiy mas‘uliyat, etik nazorat, avtonomiya, etik tamoyillar.

Аннотация.

Развитие критического мышления осуществляется посредством обучения по развитию биоэтических навыков будущих врачей, что позволяет врачам ориентироваться в быстро меняющемся мире биомедицинских технологий и принимать обоснованные решения в сложных ситуациях. Использование метода «Кейс-стади» для развития деонтологической компетентности призвано развивать у студентов навыки биоэтического мышления, поиска этических решений и принятия правильных решений. Таким образом, студенты могут изучить ситуацию, понять характер проблем, предложить возможные решения и выбрать лучшее из них.

Ключевые слова: Кейс-стади, профессиональная ответственность, этический контроль, автономия, этические принципы.

Abstract

Critical thinking is developed through bioethical skills training for future physicians, enabling them to navigate the rapidly changing world of biomedical technologies and make informed decisions in complex situations. The use of the case study method for developing deontological competence is intended to develop students' skills in bioethical thinking, searching for ethical solutions, and making the right decisions. In this way, students can examine the situation, understand the nature of the problems, propose possible solutions and choose the best one.

Key words: Case study, professional responsibility, ethical control, autonomy, ethical principles.

Dolzarbliqi. Bioetika – ma‘naviyat sohasidagi ilm-fan yo‘nalishlaridan biri sifatida, hozirgi zamon axloqshunosligining muhim sohasi sifatida taraqqiy etib kelmoqda.

Bioetikada inson hayoti eng oliy axloqiy qadriyat sifatida talqin etiladi, insonlar va shaxslararo munosabatlarning ma‘naviy-axloqiy omili deb qaraladi.

Insonning tabiat bilan uzluksiz aloqasini axloqiy tamoyillar asosida tahlil etish asosida, tabiatni muhofaza qilish mas'uliyati bioetikaning madaniy negizini tashkil etadi. Bioetika ijtimoiy masalalar bilan bir qatorda, qadriyatlar muammosini ham qamrab oladi. Bioetikaning maqsadlaridan biri – inson xatti-harakati, ongi, ruhiyati va irsiyatini o'zgartirish maqsadida o'tkazilayotgan tadqiqotlarni cheklash mezonlarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning maqsadi: bioetika muammosining dolzarblashuvi tibbiyot sohasining ilmiy-texnika taraqqiyoti, biogenetika, irsiyat texnologiyasi va gen injeneriyasining rivojlanishi bilan bog'liq bo'lib, tabiiy muhitni muayyan maqsadga mos ravishda o'zgartirish imkoniyati yaratilmoqda.

Bo'lajak shifokorlarni bioetik ko'nikmalarga tayyorlashda bioetikaning fanlararo tabiatini va uning tibbiyotning axloqiy dilemmalarini hal qilishdagi rolini tushunish, asosiy bioetik tamoyillarni bilish (masalan, bemorning avtonomiyasini hurmat qilish va "zarar yetkazmaslik" tamoyili) kiradi, shuningdek, amaliy ma'lumotli qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish munozaralar, holatlarni tahlil qilish va axloqiy me'yorlarni o'rganish orqali murakkab klinik holatlarda eng maqbul yechim topa olish qobiliyati muhim omillardan sanaladi.

Tibbiyot fanining zamonaviy yutuqlari bilan bir qatorda, so'nggi tibbiy va biologik yutuqlarni baholash bo'yicha bioetik muammolar ahloqiy mezonlarni talab etib kelish bilan birga, shifokorlar tomonidan qabul qilinayotgan faoliyatning odamlar va butun insoniyat uchun xavflilik darajasini aniqlash, odamlarni yangi biotibbiyot texnologiyalarini joriy etishning nomaqbul oqibatlaridan himoya qilishni tartibga soluvchi qonun hujjatlari to'g'risidagi bilimlarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Usul va uslublar. Shifokor bioetik madaniyatida inson hayotini hurmat qilish, inson huquqlarini himoya qilish, qadr-qimmat va xavfsiz dori-darmonlardan foydalanish dolzarb bo'lib bormoqda.

Shifokor kasbining taraqqiyoti nafaqat soha mutaxassisining kasbiy kompetentsiyalariga, balki bemor xavfsizligi, inson va jamiyatning bioxavfsizligi, butun sayyorada sog'lom hayotning saqlanishiga javobgarlik shaklida taraqqiy etmog'i lozim.

Bo'lajak shifokorlar tibbiy amaliyotda yuzaga keladigan murakkab axloqiy dilemmalarni tahlil qilishni va bioetik tamoyillar va tibbiy ko'rsatkichlar asosida maqbul yechimlarni topishni o'rganishlari kerak.

Murakkab masalalarni muhokama qilish, xabardor rozilik olish va nizolarni hal qilish uchun bemorlar, ularning oilalari va hamkasblari bilan muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirish muhimdir.

Bioetika bo'lajak shifokorlarga nafaqat o'z kasbining axloqiy jihatlarini tushunishga, balki insoniylik, mas'uliyat va bemorning huquqlarini hurmat qilish istagiga asoslangan kasbiy o'ziga xoslikni shakllantirishga yordam beradi. Bioetika bo'yicha treninglar tashkil etish orqali, tanqidiy fikrlash targ'ib qilinadi, shifokorlarga tez o'zgaruvchan biotibbiyot texnologiyalari dunyosida harakat qilish va qiyin vaziyatlarda ongli qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Bir qator tadqiqotchilarning fikriga ko'ra tibbiyot oliygohlari talabalariga bioetikani o'qitishda quyidagi vazifalar belgilab berilish lozim:

1. Axloqiy ongni shakllantirish. JSST va shifokorlik deontologiyasi kodeksiga va nizomlariga xatti-harakatlari va axloqiy me'yorlarga amal qilmaydigan shaxslar

sogʻliqni saqlash sohasi xodimi sifatida faoliyat yuritishi mumkin emas.

2. Axloqiy masalalarni mantiqiy baholash qobiliyati, konseptual vositalarni qoʻllash bioetika va oʻz qadriyatlarini koʻlami, hamkasblar va bemorlar bilan munozaralarda yetarli bilim, koʻnikmalarni taʼminlash va oqilona axloqiy tahlil qilish uchun zarur boʻlgan amaliy koʻnikmalarga ega boʻlish.

3. Tanqidiy baholash qobiliyatini oʻrgatish va kasbiy munozorali xolat va vaziyatlarda muqobil yechimlar topa olish. Kelajakdagi tibbiyot mutaxassislarini izchillikda tarbiyalash kerak, bu kasbiy kompetensiyani vijdon bilan uygʻunligini shakllantirishga hissa qoʻshadi va professionallik va axloqni sof deklarativ tushunchalarga aylantirishga toʻsqinlik qiladi.

:

4. Zamonaviy integrasiyalashgan sogʻliqni saqlash tizimining mutaxassislari jamoasida muvaffaqiyatli ishlash uchun axloqiy va kasbiy masʼuliyatni oʻz zimmasiga olish va har doim hamkorlikka intilish qobiliyatini oʻrgatish muhim va zarur shartdir.

Natijalar. Kasbiy bioetik koʻnikmalarni shakllantirishda treninglar tashkil etish professional axloq kodekslari, tibbiy amaliyot standartlari va tibbiy faoliyatni tartibga soluvchi tegishli Qonunchilik bilan tanishishni oʻz ichiga olishi kerak.

Boʻlajak shifokorlar oʻrtasida deontologik kompetentlik darajasini aniqlash maqsadida I va II kurs talabalari orasida soʻrovnoma oʻtkazildi. Soʻrovnomada jami 100 nafar talabalar ishtirok etdi. Ularga quyidagi yoʻnalishlar boʻyicha oʻzini baholash soʻraldi

Tibbiy deontologik kompetentlik asosi	Kasbga ruhan moslashganlik	Kasbiy mahoratning shakllanishi	Shifokor obrazida oʻzini boshqara olish	Kasbiy deontologik kompetentlikning shakllanganligi
Axloqiy bilimlar				
Munosabatlari madaniyati				
Shaxsiy fazilatlar				
Qaror qabul qilish qobiliyati				
Etik keyslar tahlili koʻnikmasi				

Axloqiy bilimlar (85%) — talabalar tibbiy etika va burchlar toʻgʻrisidagi nazariy

bilimlarga ega ekanliklarini ko'rsatishgan. Bu universitetda nazariy fanlarga jiddiy yondashuv borligini anglatadi.

Munosabatlar madaniyati (78%) — talabalarining bemorlar va hamkasblar bilan munosabat madaniyati yuqori baholangan, ammo hali kamchiliklar bor.

Shaxsiy fazilatlar (82%) — mas'uliyat, empatiya, sabr-toqat kabi shaxsiy xislatlar deyarli yuqori darajada. Bu shifokor shaxsiy fazilatlarining rivojlanganini ko'rsatadi.

Qaror qabul qilish qobiliyati (70%) — etik vaziyatlarda mustaqil va insofli qaror qabul qilishda kamchiliklar mavjud. Bu sohada ko'proq amaliy mashg'ulotlar talab etiladi.

Etik keys tahlili ko'nikmasi (65%) — eng past natija etik muammolarni tahlil qilish va yechim topishda kuzatildi. Bu sohada Rolevoy o'yinlar, simulyatsiyalar va diskussiyalarga asoslangan metodlarni joriy etish zarurligini anglatadi.

Quyida keltirilgan mezonlar asosida shifokorning kasbiy deontologik ko'nikmalarini shakllantirish uchun refleksiv texnologiyalarning keys topshiriqlaridan foydalanish eng maqbul ta'lim texnologiyasi sifatida baholandi.

Keys-stadi usuli - vaziyat usuli, holat usuli, vaziyatni tahlil qilish orqali, real iqtisodiy, ijtimoiy va biznes vaziyatlarning tavsifidan foydalanadigan o'qitish usuli sanaladi. Bunda talabalar vaziyatni o'rganishlari, muammolarning mohiyatini tushunishlari, mumkin bo'lgan yechimlarni taklif qilishlari va eng yaxshisini tanlashlari kerak. Ishlar haqiqiy faktik materiallarga asoslangan yoki real vaziyatga yaqin bo'lishi zarur.

Quyida deontologik kompetentlikni rivojlantirish uchun mos bo'lgan etik keys tahlili (etik case tahlili) uchun Real vaziyat asosida keyslar keltirilgan. Ular talabalarda

bioetik fikrlashlari, axloqiy yechim topishi va to'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmasini shakllantirish uchun mo'ljallangan.

Keys vazifa/ Shifokorlarning vaksinalarga qarshi shubhalari

Tavsifi: Ba'zi shifokorlar vaksinalarning samaradorligi yoki xavfsizligiga shubha bilan qarashadi. Bu shubhalar bemorlar orasida vaksinalarga nisbatan ishonchsizlikni kuchaytirishi, umumiy sog'liqni saqlash tizimiga zarar yetkazishi mumkin.

Asosiy etik muammolar: Kasbiy mas'uliyat: Shifokorlar bemorlar sog'lig'ini himoya qilish uchun ilmiy asoslangan ma'lumotlarni yetkazishi, noto'g'ri ma'lumot tarqatmasligi kerak. Shubhalar kasbiy majburiyatga zid bo'lishi mumkin.

Ishtirokchilarning sog'ligi: Vaksinalar bemorlar va jamiyat uchun muhim tibbiy vosita hisoblanadi. Shubhalar vaksinalardan voz kechishga olib kelib, kasalliklarning ko'payishiga sabab bo'lishi ehtimoli bor.

Ilmiy dalillarga asoslanish: Shifokorlar qaror va tavsiyalarni ishonchli ilmiy ma'lumotlarga asoslab berishi lozim.

Muammo tahlili:

Shubhalarning kelib chiqishi. Shifokorlarning vaksinalarga shubhalari asosan noto'g'ri axborot, shaxsiy tajriba yoki bilim yetishmasligidan kelib chiqishi mumkin.

Ta'sir. Shubhali shifokorlar bemorlarni noto'g'ri yo'naltirishi, vaksinalardan bosh tortishga sabab bo'lishi mumkin. Natijada epidemiologik vaziyat yomonlashadi.

Axloqiy dilemma. Shifokor erkin fikr bildirishi va ilmiy munozaralarda ishtirok etishi huquqi bormi? Biroq, bu erkinlik bemorlarni xavf ostiga qo'yish bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Etik tamoyillar bo'yicha yondashuv:

Kasbiy mas'uliyat. Shifokor o'z kasbiy majburiyatini bajarib, faqat ilmiy asoslangan

ma'lumotlarni yetkazishi lozim. Shubhalar bo'lsa, izlanish olib borishi, noto'g'ri ma'lumotlarni tarqatmasligi kerak.

Foydalilik (Beneficence). Vaksinalar ko'plab kasalliklarning oldini olishda yordam beradi. Shifokorlar bemor manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yishi zarur.

Zarar yetkazmaslik (Non-maleficence). Shubhali fikrlar sababli bemorlarga zarar yetkazilishining oldini olish shart. Fikrlar ehtiyotkorlik bilan ifodalanishi lozim.

Avtonomiya. Bemorlar to'g'ri va to'liq ma'lumotga ega bo'lishi kerak, noto'g'ri shubhalar ularga zarar yetkazishi mumkin.

Ishonchlilik (Fidelity). Shifokor bemor oldida halol bo'lishi, faqat ishonchli ma'lumotlarni taqdim etishi lozim.

Qarorlar va yechimlar:

Malaka oshirish. Shifokorlarning vaksinalar haqida ilmiy bilimlarini yangilash uchun maxsus treninglar, seminarlar tashkil qilish.

Axborotni to'g'rilash. Shubhalar va noto'g'ri tushunchalarni ilmiy asosda tushuntirish, shifokorlar o'rtasida ilmiy muloqotlarni kuchaytirish.

Jamoatchilik bilan ishlash. Shifokorlar jamiyatga to'g'ri axborot yetkazish orqali vaksinalarga ishonchni oshirishda yetakchi bo'lishlari kerak.

Etik nazorat. Kasbiy etik komissiyalar shubhali axborot tarqatgan shifokorlarni aniqlab, ogohlantirish va zarur ta'lim berish.

Shaxsiy fikr va kasbiy majburiyatni muvozanatlash. Shifokorlar o'z fikrini erkin ifoda etish huquqiga ega bo'lsa-da, bu huquq bemor sog'lig'iga zarar yetkazmasligi kerak.

Keys bo'yicha yakuniy xulosa. Shifokorlarning vaksinalarga nisbatan shubhalari bioetikaning murakkab masalalaridan biridir. Bu holatda kasbiy axloq

va javobgarlik eng muhimdir. Ilmiy dalillarga asoslangan qarorlar qabul qilish va bemorlarni to'g'ri xabardor qilish orqali bu muammoni yengish mumkin. Shifokorlarning shaxsiy shubhalari umumiy sog'liqni saqlashga salbiy ta'sir qilmasligi kerak.

Xulosalar. Har qanday vaziyatda xotirjamlikni saqlash va asabiylashishdan qochish qobiliyati bo'lajak shifokorlarda salbiy his-tuyg'ularni nazorat qila olish jamoa tomonidan ijobiy qabul qilinadi.

- o'z-o'zini nazorat qilish (o'z-o'zini nazorat qilish), his-tuyg'ularingizni boshqarish qobiliyati va amallar;

- mustahkamlik va mustahkamlik;

- ishonchli vakillariga vakolat berish, ularning huquqlarini tan olish va muayyan masalalar bo'yicha majburiyatlar;

- boshqalar haqidagi fikringizni uchinchi tomonning fikriga bog'liq qilmang;

- qo'l ostidagilarning kuchli va zaif tomonlarini muhokama qilishdan saqlanish;

- xodimni intizomiy jazolash to'g'risida faqat keyin qaror qabul qilish;

- rahbarning fikriga ko'ra, asosiy xodimlarning psixologiyasi va motivatsiyasini tushunish,

- har bir bemorning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish.

Xulosa. Shunday qilib, bo'lajak shifokorlarning kasbiy deontologik ko'nikmalarini shakllantirish va takomillashtirishda refleksiv texnologiyalar va munozorali ta'lim texnologiyalaridan unumli foydalanish talabalarida shifokor kasbini oldindan tasavvur qilish va kasbiy mas'uliyatni shakllantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Bu borada keys metodlaridan uzluksiz foydalanish yetarlicha natija ko'rsatishi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sharipov B.J. Tibbiyot xodimlarining deontologik tayyorgarligi: nazariy asoslar. O‘zbekiston tibbiyot jurnali. – 2022. – №1. – B. 15–19.
2. Abdullayeva D.X. Shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim va kasbiy kompetentlik/Pedagogika va psixologiya. – 2020. – №2. – B. 45–49.
3. O‘.Tolipov. D.Ro‘ziyeva. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent . –2018. AI № 235. . – B. 167-170.
4. Beauchamp T.L., Childress J.F. Principles of Biomedical Ethics. – Oxford University Press, 2013.– 417 p.
5. Pellegrino E.D. The Philosophy of Medicine Reborn. – Notre Dame Press, 2008. – 232 p.
6. O‘zbekiston Respublikasi shifokor axloq kodeksi. – Toshkent, 2016.

C
A
R
J
I
S